UO‘K (UDC, УДК): 81-11

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA GEOLOGIYA SOHASIGA OID TERMINLARINING IZOMORFIK XUSUSIYATLARINI QIYOSIY TAHLILI[18]

Rixsiyeva Lola Azimjanovna
o‘qituvchi, mustaqil izlanuvchi
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Toshkent, O‘zbekiston
https://orcid.org/0000-0001-7478-5734
E-mail: lolarihsieva77@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillarining geologiya sohasida qo‘llanilad termin va terminalogik birikmalari tanlangan bo‘lib, mazkur tillarda geolo terminlarining izomorfik xususiyatlarini keng ko‘lamli tizim asosida ta qilinadi. Terminlarning ikki tilda tadqiq qilishda ko‘pgina o‘zbek va tilshunoslar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilganiga qaramay, shu kung terminlarni keng ko‘lamli tizimda tadqiq etilmagani tufayli terminlarning tilda o‘xshash va farqlanadigan tomonlari yetarli darajada ochib berilmagan. tilda bir sohaga oid terminlarni strukturaviy-funksional xususiyatlarini ta qilish uchun aynan shunday nomlanadigan, strukturaviy-funksional usul o amalga oshiriladi va uning asosiy talablari ko‘pincha tizimli yondashuvning turi sifatida qaralar ekan, tipologik qiyosiy tadqiq uchun tillarning keng ko‘l umumlashtiruvchi tizimda mavjud bo‘lgan turli jihatlarning o‘xshashligi o‘xshamasligini aniqlash juda muhimdir. Shu asosda, mazkur ilmiy maqo xorijiy tarjibaga tayangan holda, xorijlik tilshunos olim Krizistof Ozga tillardagi o‘xshash va farqlovchi xususiyatlarni o‘rganishda as tendensiyalarni qamrab olgan keng ko‘lamdagi tizimni sinflarga ajratgan h geologiyaga oid terminlar o‘rganildi. Ushbu tizimda asosan terminlarni as izomorfik xussusiyatlari tadqiq qilishga qaratilgan bo‘lib, natijada ingliz o‘zbek tillarida geologiya terminlarining tizimli tahlil qilish orqali terminlari derivatsion shakllari izomorfik xususiyatlarga ega ekanligi namoyon etildi.

KALIT SO‘ZLAR

Termin, terminosistema, terminologiya, geologiya, izomorfik xususiyatlar, strukt funksional, diagrammatic asp leksik birliklar, monoleksema polileksemalar

.

Received: January 6, 2024
Accepted: January 24, 2024
Available online: March 1, 2025

[18] **For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):**
Rixsiyeva L.A. Ingliz va o‘zbek tillarida geologiya sohasiga oid terminlarining izomorfik xususiyatlarini qiyosiy tahlili. // Komparativistika (Comparative Studies). — 2025. — Vol.2, № 1. — B. 166-178

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ИЗОМОРФНЫХ ОСОБЕННОСТЕЙ ТЕРМИНОВ ИЗ СФЕРЫ ГЕОЛОГИИ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Лола Азимжановна Рихсиева
преподаватель, соискатель
Узбекский государственный университет мировых языков
Ташкент, Узбекистан
https://orcid.org/0000-0001-7478-5734
E-mail: lolarihsieva77@gmail.com

АННОТАЦИЯ

В данной статье описываются термины и терминологические сочета используемые в геологической сфере английского и узбекского язы Изоморфные особенности геологических терминов этих язы представлены в виде широкомасштабной системы. Несмотря на то, многие узбекские и русские лингвисты проводили научные исследова сходств и различий терминов в двух языках, они все еще опис недостаточно полно, поскольку систематизация терминов еще имела та масштабного характера. Исследование структурно-функциональ особенностей терминов двух языков, относящихся к указанной обла осуществляется с помощью структурно-функционального мет Поскольку его основные принципы часто рассматриваются в каче разновидности системного подхода, для сравнительного типологичес исследования крайне важно определить сходные или различные аспе присущие широкомасштабной обобщающей системе языков. Исход этого в данной научной статье сходства и различия в терминологии д языков исследуются, в том числе, на основе зурубежного опыта, в частно на основе работ лингвиста Кшиштофа (Кристофера) Озги. В этой сис основное внимание уделяется исследованию изоморфных свойств терми и в результате путем системного анализа геологических термино английском и узбекском языках демострируется, что словообразовател формы терминов обладают изоморфными свойствами. В данной масшта системе основные изоморфные особенности делятся на два типа лексические единицы анализируются в заивсимости от того, к какому т – изобразительному или диаграммному – они относятся. В заключ необходимо отметить, при изучении геологической терминологии в ра целостной системы все структурные аспекты специальных лексиче единиц сопоставляются по их типологическим аспектам, при выявляются изоморфные аспекты неродственных языков.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Термин, терминосист терминология, геолс изоморфные свойс структурно-функциональн диаграммный асп лексические един монолексемы, полилексем .

COMPARATIVE ANALYSIS OF ISOMORPHIC FEATURES OF TERMS IN THE FIELD OF GEOLOGY IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Rikhsieva Lola Azimjanovna,
teacher, aspirant
Uzbekistan State World Languages University
Tashkent, Uzbekistan
https://orcid.org/0000-0001-7478-5734
E-mail: lolarihsieva77@gmail.com

ABSTRACT

This article describes the terms and terminological combinations used in geological sphere of English and Uzbek languages, and the isomorphic featur geological terms of these languages are presented on the basis of a large-s system. Despite the extensive research conducted by Uzbek and Russian ling on the study of terms in both languages, there remains a lack of compreher analysis of the similarities and differences between them. This is due to the of a large-scale systematic study of terms in both languages. The examinatic the structural and functional characteristics of terms pertaining to a specific in two languages is conducted through the utilization of the structural functional method. Since its basic requirements are often considered a kin systems approach, it is important for typological comparative researcl determine the similarity or difference of aspects existing in a large-s generalizing system of languages. Based on this, similarities and differenc languages are studied in this scientific article based on the works of foreign lin Krzysztof Ozga. In this system, the main attention is paid to the stud isomorphic properties of terms. Thus, by conducting a systematic analysi geological terminology in both English and Uzbek, it has been demonstrated the word formation patterns of these terms possess isomorphic characteristics

KEY WORDS

Term, terminology system, terminology, geology, isomorphic features, structural and functional, diagrammatic aspects, lexical units, mono lexemes, poly lexemes,

KIRISH

Bugungi kunda dunyoning yetakchi ilmiy markazlarida soha terminologiyasining tuzilishi, leksik tarkibi, terminlarning boshqa soha va tillardan soha terminologik tizimiga kirib borish omillari kabi yo‘nalishlarda ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ingliz va o‘zbek tillarida geologik terminlarning izomorfik tomonlari bo‘yicha keng ko‘lamli tadqiqotlar olib borilishi ushbu tadqiqot ishining mavzusining dolzarbligini, tipologik qiyosiy tadqiq uchun tillarning keng ko‘lamli umumlashtiruvchi tizimda mavjud bo‘lgan turli jihatlarning o‘xshashligini topishdan iborat bo‘lgan maqsadni va geologiya terminlarining izomorfik xususiyatlarini aynan shu keng ko‘lamli tizim asosida taqdim etish vazifasini belgilaydi. Shu asosda ingliz va o‘zbek tillarida geologiya terminlarining tizimli tahlil qilish orqali geologiya terminlarining derivasion yuzasidan izomorfik xususiyatlarga ega ekanligini dalillangani mavzuning yangiligidir. Terminshunoslik fani turli terminosistemalarni, turli tillarga oid terminlar va ularning elementlarini o‘z ichiga oladi, umuman til qurilishining muhim belgilarini, tillarni har tomonlama taqqoslash asosida umumlashtiruvchi lingvistik tipologiya orqali muayyan sohalardagi turli tillarga mansub bir ikki yoki undan ortiq va bir necha davrda rivojlangan fanlar doirasidagi, hamda ikki yoki undan ortiq turdosh sohalar doirasidagi terminlarning tipologik belgilarni aniqlashtiradi. Lingvistik tipologiya ikki yoki undan ortiq qarindosh yoki qarindosh bo‘lmagan har xil tizimdagi tillarning ayrim, ya’ni izomorfik va allomorfik xususiyatlarini o‘zaro qiyosiy o‘rganadi. Tilshunoslik sohasidagi tipologik tadqiqotlar o‘zbek olimlar A.Abduazizov, J.Bo‘ronov, M.T.Irisqulov, M.I.Rasulova, rus va ingliz tillarida ilmiy ishlar olib borgan olimlardan V.D Arakin, M.A. Bocharova, Jon Xeyman, O.Fisher, T.Givon, Krisztof Ozga va boshqalar tipologiya masalalari bilan shug‘ullanganlar, shuningdek E.A.Pankratova, Sh.S. Razzokberdiev, B.X. Omonovlar geologiya sohasiga oid terminologiyaning ikki til o‘rtasida qiyosiy tadqiqotlar olib borganlar.

Izomorfizm tushunchasi tilshunoslikka E.Kurilovich tomonidan kiritilib, u turli til sathlaridagi o‘xshashliklarni qayd etdi: «*Birlashtiruvchi funksional munosabatlardan qat’i nazar, tilning fonetik aspektlari(masalan, bo‘g‘inlar) va*

semantik aspektlari (masalan, gaplar) chuqur strukturaviy parallellikka egadir, ular orasida juda ajoyib o‘xshashlik mavjud, uni izomorfizm deb atash mumkin»(Bocharova M.A., 2010, 3). “Tilshunoslik terminlari” lug‘atida O.S.Axmanova izomorfizm nazariyasiga quyidagi ta’rifni beradi: *«Izomorfizm nazariyasi tilning turli sathlari o‘rtasidagi xususiyati jihatidan farq yo‘qligini ta’kidlaydigan va shuning uchun ularni o‘rganish bir xil usullar va prinsiplarni qo‘llashni talab qiladigan nazariyadir»(*Axmanova O.S.,2004,473). Dastlab bir xil tadqiqot prinsiplarini qo‘llash imkoniyatini o‘z zimmasiga olgan izomorfizm nazariyasi ilmiy bilimlarning turli sohalarida har qanday til hodisalarining o‘xshashligi yoki o‘ziga xosligini aniqlashda boshlang‘ich nuqta sifatida qo‘llanila boshlandi.

ASOSIY QISM

M.A.Bocharova aytishicha, tipologik tadqiqotning nazariy ko‘rsatmalari orqali kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, soha terminologiyasida shunday hodisalar, ya’ni terminlarning strukturaviy va funksional o‘xshashligi mavjud bo‘lib, ular bir xil usullardan foydalangan holda ko‘rib chiqilishi kerak va ularning mohiyatini tushunishda boshlang‘ich asosi bir xil bo‘lsagina, ularda izomorfik xususiyatlar bor deb aytish mumkin. Struktur-funksional usul yaxlit tizimning elementlarining tuzilishini aniqlashga asoslanadi, tizimning elementlari va ularning funksiyalari o‘rtasidagi barqaror munosabatlar va o‘zaro bog‘lanishlar to‘plami. *“Struktura— deganda ma’lum bir shakllarni o‘zgarishi ostida qolipga tushirilgan tarkib tushuniladi”*(Koxanovskiy V.P.,2003, 448). Har qanday termin nominativlik xususiyatidan tashqari, turli funksiyalarni ham bajarishi mumkin. Shunda, terminlar ishlatiladigan sohada asosiy terminlar sifatida yadroda joylashishi yoki terminosistemada termin maqomiga o‘tishni identifikatsiya qilish funksiyasini bajarish, hamda terminlarning shakllanishida terminologik birikmani hosil qilish bo‘yicha tayanch yoki yordamchi komponent sifatida xizmat qilish kabi turli funksiyalarni o‘z ichiga oladi. Struktur-funksional usulda asosiy talablar ko‘pincha tizimli yondashuvning bir turi sifatida qaraladi: a) tizim obyektining tuzilishini o‘rganish; b) tizim elementlarini va ularning funksional xususiyatlarini tadqiq qilish;

v) bu elementlarning shakllarini o‘zgarishlari va ularning funksiyalarini tahlil qilish; d) tizim ob’ektining rivojlanishini (tarixini) bir butun sifatida ko‘rib chiqish; e) tizim sifatida tasvirlash uchun ob’ekt va elementlar uyg‘unlikda shakllanishi va tadqiq uchun ijobiy natijalar olishda barcha elementlari ushbu uyg‘unlikni saqlab qolishdan to‘xtab qolmasligi kerak(Koxanovskiy V.P.,2003,448).

Polshadagi Krakov shahrining Yagaylo universiteti qoshidagi sharqiy slavyan tillari bo‘yicha tadqiqotlar institutida faoliyat olib borayotgan falsafa fanlari doktori Krizistof Ozganing *“On Isomorphism and Non-Isomorphism in Language”(Tildagi Izomorfik va Noizomorfik xususiyatlar)*deb nomlanadigan ilmiy nashrida olimlar tomonidan keltirilgan tillardagi o‘xshash va farqlovchi xususiyatlarni o‘rganishda asosiy tendensiyalarni taqdim etdi.Ozga o‘z tadqiqotida polyak, rus va ingliz tillardagi ravishlarni kommunikativ grammatika doirasida qiyoslashlarda tadqiqotchilar Eji Kurilovich, T.Givon, O.Fisher va J.Xeymanlarning qarashlarini umumlashtirib, izomorfizmga uchraydigan jihatlarga alohida e’tibor bergan holda, ularni tasniflash orqali quyidagi jadval yordamida keng ko‘lamdagi tizimni sinflarga ajratgan holda namoyon etdi (Ozga K.,2011,35).

1-jadval

Izomorfik jihatlarning tasniflashi

Iconicity	Imagic	oral— tactile— visual		
	Diagrammatic	Structural	isomorphism	–centrality vs. eripherality – istance/proximity – equential ordering markedness

Unga ko‘ra, J.Xeyman til birliklarni asosiy izomorfik jihatlarni ikki turga, bularga tasviriy (imagic iconicity) va diagrammatik (diagrammatic) qiyoslanadigan qirralarni,

ya’ni tenglasha oladigan jihatlarga(iconicity) ajratdi (Haiman J.,1980,525–540).Tasviriy jihatga asosan tovushga taqlid qilingan leksik birliklar, predmetning holatini anglatuvchi(qattiq, yumshoq, suyuq, yopishqoq)tushunchalarga tushirilgan va biron bir narsani tashqi ko‘rinishga o‘xshatish orqali tushunchaga tushirilgan leksik birliklardir.

M.Irisqulov ta’kidlashicha: *«Har bir tilda tabiat tovushlariga taqlid qilish yo‘li bilan paydo bo‘lgan so‘zlar mavjud bo‘lib, ana shu tovush va tovush birikmalari so‘z yasashga asos bo‘lgan deb hisoblanadigan fikr ilgari surilgan»*(Irisqulov M.,1992,12). O‘zbek tilida geologiyada uchraydigan terminlardan birini misol keltirishimiz mumkin: ***Sharshara****—oqim o‘zani tik jarlik hosil qilishi natijasida suv pastga otilib tushadigan joy.* Sharshara so‘zi suvning pastga otilib, tushayotganda chiqadigan *shar—shar* tovushlarga taqlid qilgan holda so‘z yasashga olib kelgan. Tilda bunday so‘zlar yoki terminlar juda kamchilikni tashkil qiladi, hatto ingliz tilida geologiyada *bash, mash, smash, crash, dash, lash, hash, rash, clash, trash, plash, splash, flash* kabi tovushlarga taqlid qilgan holda yuzaga kelgan terminlar kuzatilmadi. Lekin ingliz va o‘zbek tillarda geologiya sohasida tashqi ko‘rinishga o‘xshatish orqali tushunchalarga tushirilgan leksik birliklar mavjud. Misol uchun, **arm**—*tog‘ tizmasi,* **solifluction lobe**—*ko‘chki tili.* J.Xeyman,T.Givon va O.Fisherlar o‘z qiziqishlarini va e’tiborlarini diagrammatik jihatiga taaluqli so‘zlarga qaratdilar, chunki ular tasviriy jihatga moyil so‘zlarga nisbatan ko‘p. Tizimdagi diagrammatik jihat strukturaviy sinfga ajratilgan bo‘lib, ular leksik birliklarning o‘xshash va farqlovchi tomonlarini tahlil qilish uchun taqsimotlarni o‘z ichiga olgan. Krizistof Ozga diagrammatik jihatning strukturaviy sinfining birinchi taqsimotiga (centrality/peripherality) markazdagi va periferiyada joylashgan so‘zlarni dixotomiya usuli orqali belgiladi. Agar dixotomiya usulda yasama so‘zlarning tarkibidagi ichki komponentlarni (initial group (onset) + the syllabic center + final group (coda)) ajratgan holda tahlil qilinsa, old va orqa qo‘shimchalarning (accessory part) mahsulli va (accessory member) mahsulsizligiga qarab, ularni markaziy va periferiya bo‘limlarga joylashtiriladi. Yangi so‘z yasalayotgan bo‘lsa, mahsulli, yangi so‘z yasalishi yo‘q bo‘lsa, mahsulsiz bo‘ladi(Hojiyev A.,2007,45).

Ingliz tilida geologiyaga oid yasama terminlar tarkibida mahsulli old qo‘shimchalar *apo—apo, cryo—krio, hyalo—gialo, glomero—glomero, holo—golo, anti—anti, homo—mono, inter—aro* va orqa qo‘shimchalar *tion, ary, ite, al, ed, ing* so‘z yasovchi sifatida so‘z yasalishiga asos bo‘ladigan leksik-semantik guruhning holati bilan bog‘liq holda yangi so‘z paydo bo‘lib turganlariga tufayli ularning so‘z yasalishi mahsulli bo‘ladi va keng ko‘lamli tizimdagi (centrality) markaziy qismidan joy oladi. Misol uchun, *cryo*—yasama terminlarda past harorat ta’sirida yuzaga keladigan jarayonini ifodalash uchun qo‘llaniladigan old qo‘shimcha orqali ***cryo****conite—krioknit, muz yuzasida to‘planadigan qora rangdagi kukunli hosila,* ***cryo****laccolith— muzli tepalik, qattiq muz yadroli past tepalik* kabi terminlar paydo bo‘lishiga olib kelgan. A.Hojiev aytishicha*: «Mahsulsiz qo‘shimchalarda so‘z yasalishidek ko‘ringan, lekin so‘z yasalishi hisoblanmaydigan hodisalar aniq belgilanadi va so‘z yasalish obyektiga kiritilmaydi»*(Hojiyev A.,2007,44). Misol uchun, *diatom earth* yoki *diatom****aceous*** *earth— diatomit,kremnezem(qumtuproq)* termin birikmalarda *diatom* so‘ziga—***aceous*** orqa qo‘shimchasi birikish holda hech qanday so‘z yasalish hodisasi mavjud emasligi, shunchaki shaklida o‘zgarish borligi uchun *diatom****aceous*** tarkibida mahsulsiz qo‘shimchali yasama termin hisoblanib, tizimda (peripherality) periferiya qismiga taqsimlanadi.

O‘zbek tilida geologiyaga oid yasama terminlar tarkibidagi orqa qo‘shimchalar *li, ma, lik, ish, simon, it, al, gan* so‘z yasalishi mahsulli hisoblanadi va keng ko‘lamli tizimdagi (centrality) markaziy qismidan joy oladi. Lekin, tog‘ jins tarkibida qo‘shimcha mahsulotlarining to‘planishi va sementlashishi hosilasini anglatuvchi tuf terminiga li qo‘shimcha birikkanda, hech qanday so‘z yasalish hodisasi yuzaga kelmaydi va mahsulsiz qo‘shimchali yasama termin hosil qiladi. Shunga ko‘ra, Geologiya atamalarining ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘atida: ***tuf qumtosh (tufli qumtosh), туфоалевролит (tufli alevrolit), туфолава (tufli lava) tufli brekchiya, (tuf brekchiyasi)****—li qo‘shimcha tushirib qoldirilgan yoki ruscha varianti o‘zlashtirilgan holda keltirilgan(*Isaxodjayev B.A.,2007,128).Ikki tilda so‘zlar va so‘z birikmalarning tarkibiy tuzilishidagi yaqin o‘xshashlik (distance/proximity)

diagrammatik jihatning strukturaviy sinfining ikkinchi taqsimotidir. Har bir sohaning tizimidagi terminoelementlar grammatik strukturasi bilan bog‘liq bo‘lgan o‘ziga xos otlar, sifatlar, ravishlar, eponim va qisqartmalar (abbreviaturalar) ko‘rinishda bo‘ladi va ular mutaxassis tadqiqotchilar tomonidan sohaga oid terminlar tizimiga aylantirilgan terminosistemani tashkil qiladi. *Har qanday sohasining terminologiyasida, shakl nuqtayi nazaridan, birinchi navbatda, terminlarning ikkita asosiy guruhini ajratish mumkin: bir so‘zli terminlar monoleksemalar va termin birikmalar polileksemalar (*Pankratova Y.A.,2005,73). Ingliz va o‘zbek tillardagi geologiya sohasiga oid monoleksemalar va termin birikmalarning strukturaviy-funksional usulda morfologik-sintaktik tuzilishidan kelib chiqqan holda umumiy tasniflash maqsadga muvofiq. *Monoleksema birliklar tub, yasama, qo‘shma terminlarni o‘z ichiga oladi (*Qodirova X.B.,2019, 21). Ingliz va o‘zbek tillarida geologiyaning monoleksema birliklariga oid terminlarni quyidagi qiyoslash orqali ko‘rib chiqishimiz mumkin.

Ingliz tilidagi geologiya sohasiga oid tub monoleksemalar: **ash**—*kul yoki qoldiq,* **caldera**—*kaldera, sirksimon shakldagi botiqlik,* Yasama terminlar tarkibida old va orqa qo‘shimchalar (affikslar) mavjud bo‘ladi: **anticline**—*antiklinal, qatlamlangan cho‘kindi, eng qadimgi jinslarni o‘z ichiga olgan, shuningdek metamorfizmga uchragan tog‘ jinslarining gumbazsimon yotish shakli,* Qo‘shma terminlar ikkita o‘zakdoshdan iborat bo‘ladi: **rockfall**—*tosh qulashi,* **limestone**— *ohaktosh.*

O‘zbek tilidagi geologiya sohasiga oid tub monoleksemalar: ***vulqon, gil, relyef;*** Yasama terminlar: ***ko‘chki, cho‘kma;*** Qo‘shma terminlar: ***qumtosh, bobotog‘.***

Ingliz tilida geologiya sohasidagi ikki komponentli polileksemalar quyidagi ko‘rinishda ega bo‘ladi: a) “ot + ot” modeli bo‘yicha:, ***lava dome***—*lava gumbazi*, ***mud pot***—*geyzer,* ***gravel bank***—*shag‘al uyumi* yoki *shag‘alning ochiq yuzasi,* b) “sifat + ot” modeli bo‘yicha: ***artificial levee***—*sun’iy suv to‘g‘oni,* ***coprogenous earth***—*koprogen er,* v) “sifatdosh+ed+ot” modeli bo‘yicha: ***aged shore***—*tub qirg‘oq,* ***integrated drainage***—*integrasiyalashgan drenaj,* g) “sifatdosh +ing +ot” modeli

bo‘yicha: ***bedding plane****—yassi (yapalok) shaklli geologik jism,* ***climbing dune****—o‘suvchi qum tepalik.*

O‘zbek tilida ikki komponentli polileksemalar quyidagi ko‘rinishda ega bo‘ladi: a) “ot + ot” modeli bo‘yicha: ***qoldiq bitumoidlar, qoldiq gillar, yo‘ldosh gaz, tosh gletcher,*** b) “sifat + ot” modeli bo‘yicha: ***magmatik granit, chaqiq dolomitlar, intruziv uyum,*** v) “sifatdosh+ot” modeli bo‘yicha: ***mumlashgan tosh, qat-qatlashgan vulqon.*** Shuni ta’kidlash kerakki, yuqoridagi ikki komponentli strukturadagi polileksekmalar “ot + ot” modeli bo‘yicha ingliz tilidagi ***mud pot*** yoki ***hot spring****—loyqali geyzer yoki issiq suvli geyzeri,* ***iron ore****—temir ma’dani(temirli ma’dan)* va o‘zbek tilidagi ***diatom gillar*** *(tarkibi diatom va boshqa organizmlar, o‘simlik qoldiqlaridan iborat),* ***yo‘ldosh gaz*** kabi terminologik birikmani hosil qilishda birinchi komponent ot, lekin u predmetning belgisini bildiruvchi so‘z bo‘lib, funksiyasi sifat orqali berilyapti. Ikki komponentli termin polileksemalar aksariyati ikkala tilda ham bir xil struktur-funksional xususiyatga ega ekanligini ko‘rish mumkin.

Talmi Givoning tillardagi izomorfik jihatlari bo‘yicha olib borgan ilmiy ishlarini e’tirof etgan holda, K.Ozga diagrammatik jihatning strukturaviy sinfining to‘rtinchi taqsimotiga T.Givon ilgari surgan belgilangan va belgilanmagan tushunchalarni kiritdi. Bunga ko‘ra, ikki tilda aktiv turdagi morfologik komponentli monoleksemalar va polileksemalar belgilangan, ya’ni ular ko‘p qo‘llanadigan model deb hisoblanib, ikki tilni o‘xshash tarafi borligi(markedness) qayd etiladi. Geologiya va geomorfologiya sohasiga mansub ingliz va o‘zbek tillaridagi leksik birliklarni morfologik strukturasi bo‘yicha olib borilgan tadqiq natijasida ingliz tilidagi terminologik maydonida 33% monoleksemalar, 67% polileksemalar, o‘zbek tilidagi terminologik maydonida esa 27% monoleksemlar, 73% polileksema birliklarni tashkil qilishi o‘rganildi. Ikki tildagi leksik birliklar nisbatidagi bir oz farqga qaramay, ingliz terminologiyasida o‘zbek tiliga qaraganda monoleksema birliklari ko‘proq va o‘zbek tili terminologiyasida, o‘z navbatida, ingliz tiliga nisbatan ko‘proq polileksemik tuzilishdagi birliklarini o‘z ichiga oladi. Shuni ta’kidlash kerakki, “sifat+ot” modeli bo‘yicha ikki komponentli polileksemalar boshqa modellarga qaraganda ko‘p

qo‘llanadigan model sifatida geologiya sohasida ingliz va o‘zbek tillarida aktiv turdagi morfologik komponent bo‘lib, kommunikativ grammatikada (marked) belgilangan qirra tushunchasi bo‘yicha izomorfik tarafi borligi uchun diagrammatik jihatning strukturaviy sinfining taqsimotiga kiritish mumkin.

XULOSA

Xulosa qilib aytganimizda, ingliz va o‘zbek tillarida geologiya terminlarining izomorfik xususiyatlari o‘rganishda keng ko‘lamdagi tizimni strukturaviy sinfining taqsimotlarga ajratgan holda namoyon etib, terminlarning o‘xshash tomonlarini tahlil qilganimizda ingliz va o‘zbek tillarida geologiya terminlarining derivatsion shaklari borasida izomorfik xususiyatlari juda ko‘p hollarda namoyon bo‘lgani qayd etildi. Ikki tildagi terminologiyaning qiyosiy ilmiy tadqiq ishlarni olib bormoqchi har bir izlanuvchilar yuqorida keltirilgan keng ko‘lamli tizimda tarminlarni o‘xshah va farq qiluvchi jihatlarni ochib berishsa, terminologiya bo‘yicha muammoli, ya’ni terminlarni unifikatsiya va tartibga solish kabi masalalarga oydinlik kirita olishadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. — М., 2004. С.473.
2. Бочарова М.А. Явление изоморфизма в русском терминоведении. Вестник РУДН, серия Русский и иностранные языки и методика их преподавания, 2010, № 3.
3. Haiman, John. (1980). The iconicity of grammar: isomorphism and motivation. Language, Vol. 56, No. 3, Linguistic Society of America, Pages 515–540. https://doi.org/10.2307/414448
4. Hojiev A. O‘zbek tili so‘z yasalishi tizimi.— T., 2007. B.45
5. Irisqulov M.Tilshunoslikka kirish. — T., 1992. B.12
6. Isaxodjaev B.A., Umarxodjaev M.U., Adilov A.A., Pirnazarov M.M., Azimov A.M.“Geologiya atamalarining ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati” Ikkinchi jildi,T., 2007.

7. Кохановский В.П., Золотухина Е.В., Лешкевич Т.Г., Фатхи Т.Б. Философия для аспирантов: Учебное пособие. Изд. 2-е - Ростов н/Д: “Феникс”, 2003. С. 448

8. Krzysztof, Ozga. (2011). On Isomorphism and Non-Isomorphism in Language. Primum Verbum ISBN: 978-83-62157-27-3. https://www.researchgate.net/publication/355038605_On_Isomorphism_and_Non-Isomorphism_in_Language

9. Панкратова Е.А. Сравнительно-сопоставительный анализ развития терминологии «нефть и нефтепродукты» в английском и русском языках. Диссертация на соискание ученой степени кандидата филологических наук.–М., 2005.

10. Qodirova X.B.Atama va izoh (milliy tasviriy va amaliy san’at atamalarining o‘zbekcha-ruscha-inglizcha izohlash masalasi). Monografiya —T., 2019. B. 21

REFERENCES

1. Akhmanova O.S. Dictionary of linguistic terms. M., 2004. P.473

2. Bocharova M.A. The Phenomenon of Isomorphism in Russian Terminology. Bulletin of PFUR, series Russian and Foreign Languages and Methods of Teaching, 2010, No. 3

3. Haiman, John. (1980). The iconicity of grammar: isomorphism and motivation. Language, Vol. 56, No. 3, Linguistic Society of America, Pages 515–540. https://doi.org/10.2307/414448

4. Khojiev A. The system of word formation of the Uzbek language. T., 2007. P. 45

5. Iriskulov M. Introduction to Linguistics. T., 1992. P.12

6. Isahodjaev B.A., Umarhodjaev M.U., Adilov A.A., Pirnazarov M.M., Azimov A.M. "Russian-Uzbek Explanatory Dictionary of Geological Terms," Volume Two, T., 2007.

7. Kokhanovsky V.P., Zolotukhina E.V., Leshkevich T.G., Fathi T.B. Philosophy for graduate students: Textbook. 2nd ed. - Rostov n / D: "Phoenix", 2003. P. 448

8. Krzysztof, Ozga. (2011).On Isomorphism and Non-Isomorphism in Language. Primum Verbum ISBN: 978-83-62157-27-3.

https://www.researchgate.net/publication/355038605_On_Isomorphism_and_Non-Isomorphism_in_Language

9. Pankratova E.A. Comparative and contrastive analysis of the development of the terminology «oil and mineral oil» in the English and Russian languages. Dissertation for the degree of candidate of philological sciences. M., 2005.

10. Kadirova H.B. Terminology and explanation (the issue of Uzbek-Russian-English interpretation of terms of national fine and applied art). Monograph. T., 2019. P. 21